



2. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risida NIZOM. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-soʻn [qarori](#) bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz>
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi “O’zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi PF-37-son [Farmoniga](#) 2-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/6811936>
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli “Umumiy o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni. <https://lex.uz>
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 sonli “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni. <https://lex.uz>
6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-sonli “O’zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida” gi qarori <https://lex.uz>
7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi 78-sonli “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quvchilarni kasb-hunarga o’qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori <https://lex.uz>
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Maktablarda xorijiy tillar va kasb o’rgatish tizimini rivojlantirish masalalari” bo’yicha yig’ilish.
9. <https://lex.uz/>
10. <https://reskm.uz/>

FIZIKA FANIDAN OLIMPIADA BAHSLARINING UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O’TKAZILISH TARTIBI

Aslonov Xayrullo Shukrullo O’g’li

Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Email: xayrulloaslonov8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi fizika fanidan olimpiada bahslarining umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’tkazilish tartibi, uning tashkiliy va metodik jihatlari, tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari olimpiada jarayonini yanada takomillashtirish, o’quvchilarni fizika faniga qiziqitirish va ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Olimpiada, maqsad, vazifa, tuman, viloyat, yozma ish, laboratoriya, test.

ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ ОЛИМПИАД ПО ФИЗИКЕ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Абстрактный: В данном тезисе анализируется порядок проведения олимпиад по физике в общеобразовательных школах, их организационные и методические аспекты. Результаты исследования послужат дальнейшему совершенствованию процесса олимпиады, повышению интереса учащихся к физике и развитию их научного мышления.

Ключевые слова: Олимпиада, цель, задача, район, область, письменная работа, лаборатория, тест.

PROCEDURE FOR CONDUCTING PHYSICS OLYMPIAD COMPETITIONS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abstract: This thesis analyzes the procedure for conducting physics olympiads in general education schools, its organizational and methodological aspects. The research results will serve to further improve the process of the Olympiad, increase students' interest in physics, and develop their scientific thinking.

Keywords: Olympiad, goal, task, district, region, written work, laboratory, test.



Bugungi kunda ta’lim jarayonida o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy fikrlashini, mantiqiy tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fani tabiiy-ilmiy tafakkurni shakllantirishda, amaliy muammolarni hal qilishda, kuzatish, tajriba o’tkazish va nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarga tadbiq etishda alohida o’rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, fizika fanidan o’tkaziladigan olimpiadalar o’quvchilarning chuqur bilimini sinovdan o’tkazuvchi, ularning ijodiy salohiyati va mustaqil fikrlash darajasini aniqlovchi muhim ta’limiy jarayon sifatida e’tirof etiladi.

O’zbekiston respublikasida fizika faniga bo’lgan e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Olimpiada bahslarini tashkil etish — bu nafaqat iqtidorli o’quvchilarni aniqlash vositasi, balki fizika fanini o’qitish sifati va mazmunini takomillashtirish, o’quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish imkonini beruvchi samarali metodik yo’nalishdir. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida fizika fanidan o’tkaziladigan olimpiadalar o’quv dasturining asosiy yo’nalishlariga tayanadi hamda o’quvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, tajriba o’tkazish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko’nikmalarini ham baholaydi.

O’quvchi yoshlar o’rtasida fan olimpiadalarini o’tkazishning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi:

- o’quvchi yoshlarning iste’dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon qilish;
- o’quvchilarda o’zlari tanlagan fanlar va ixtisosliklarni chuqur o’rganishga qiziqishlarini oshirish;
- o’quvchilarning kelajakdagi kasblarni to’g’ri tanlashiga ko’maklashish.

Fan olimpiadalarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida»gi qonunlari hamda ushbu Nizom talablari asosida ta’lim muassasalaridagi o’quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo’lishini ta’minlash, fan o’qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, qobiliyatli va iste’dodli o’quvchilarni aniqlash hamda tarbiyalashga qaratilgan ijodiy izlanishlari va mehnatini ro’yobga chiqarish;

2. Qobiliyatli o’quvchilarni aniqlash, rag’batlantirish va kamolotga yetkazish jarayonida ta’lim muassasasi, ota-onalar va jamoatchilikning o’zaro hamkorligini kuchaytirish;

3. Fan olimpiadalarining g’oliblari orasidan xalqaro fan olimpiadalarida mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qiladigan o’quvchilarni aniqlash.

Fan olimpiadasining **birinchi bosqichida** umumta’lim maktablari va akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning barcha o’quvchilari ishtirok etishlari mumkin. Navbatdagi bosqichlarda esa faqat oldingi bosqichlarda I, II, III o’rinni egallab, g’olib bo’lganlar qatnashadilar.

Birinchi bosqichda akademik litseylar va umumta’lim maktablarining chuqurlashtirilgan fanlar bo’yicha I o’rinni egallagan o’quvchilari olimpiadaning II bosqichida qatnashmasdan to’g’ridan-to’g’ri 3-bosqichida qatnashadilar.

Nizomga ko’ra, maktab o’quvchilari o’rtasida umumta’lim fanlari bo’yicha quyidagi olimpiadalar tashkil etiladi:

- asosiy olimpiada;
- qo’shimcha respublika olimpiadalar;
- onlayn olimpiada;
- nufuzli xalqaro olimpiadalar;
- mintaqaviy xalqaro olimpiadalar.

Jumladan, asosiy olimpiadalar tegishli fanlardan ikki guruhga ajratilgan holda 4 bosqichda quyidagi muddatlarda o’tkaziladi:

- 1-bosqich – maktab, akademik lisey va kasb-hunar maktablar miqyosida sentyabr oyida;
- 2-bosqich – tuman (shahar) miqyosida oktyabr oyida;
- 3-bosqich – Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida noyabr oyida;
- 4-bosqich – respublika miqyosida barcha fanlardan aprel-may oylarida.
- 4-bosqichda maktablarning 11-sinf, kasb-hunar maktablari, akademik liseylarning 2-bosqich o’quvchilari qatnashadi.

Har bir fan yo’nalishida ballar ketma-ketligida 1, 2, 3-o’rinlarni egallagan o’quvchilar g’olib hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarida o’qituvchi bo’lib ishlayotgan nufuzli xalqaro olimpiadalar g’oliblari lavozim maoshiga har oy 150 foiz, asosiy olimpiadalar respublika bosqichi g’oliblari lavozim maoshiga har oy 100 foiz miqdorida ustama haqi to’lanadi[2].



Olimpiadani ochiq, adolatli va shaffof o’tkazilishini ta’minlash maqsadida, auditoriyalarda va olimpiada o’tkaziladigan joylarga kuzatuv kameralarini o’rnatish, har bir auditoriyaga xolis nazoratchi va kuzatuvchilarni jalb etiladi.

– asosiy olimpiadaning uchinchi – hududiy bosqichga olis hududlardan keladigan o’quvchilar va o’qituvchilarni hududiy pedagogik mahorat markazlarining yotoqxonasiga joylashtirishni tashkil etiladi.

– olimpiadani tashkil etish va o’tkazishga oid tegishli hujjatlar (qaydnoma, qaror, hisobotlar)ning hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan to’g’ri, sifatli rasmiylashtirilishini ta’minlash va natijalari bo’yicha tahliliy ma’lumotnomani Respublika tashkiliy qo’mitasiga taqdim etish vazifalari yuklatilgan[3].

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida fan olimpiadalarini tashkil etishning metodik jihatlari, eng avvalo, o’quvchilarda chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalarni uyg’un rivojlantirishga qaratilgan. Olimpiada masalalari o’quv dasturidagi bilimlarni chuqurlashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ijodiy yondashuvni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Metodik jihatlari

Metodik jihatdan olimpiadaga tayyorlov jarayoni bosqichma-bosqich olib boriladi:

1. Nazariy tayyorgarlik — o’quvchilarga murakkab tushunchalar va qonuniyatlarni tahlil qilishni o’rgatish.

2. Masalalar tahlili va yechish metodikasi— o’quvchilarga turli darajadagi masalalarni tahlil qilish, fizik modellarni tuzish va ularni matematik ifodalash ko’nikmalarini shakllantirish.

3. Trening va virtual laboratoriyalar — tajriba asosida nazariy bilimlarni mustahkamlash, tajribaviy masalalarni hal etish.

4. Refleksiya va tahlil — yechim jarayonini baholash, xatolarni aniqlash va umumlashtirish.

Bunda o’qituvchining metodik yondashuvi, o’quvchilarni individual tayyorlash, muammoli vaziyat yaratish hamda o’z-o’zini tahlil qilish usullari muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Olimpiada bahslarini metodik jihatdan to’g’ri tashkil etish — o’quvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy tahlil qilish va yangicha yondashuvni shakllantirishning asosiy vositasidir. Ushbu metodikalar umumiy va an’anaviy qo’llaniladi. O’qituvchi o’zining salohiyatidan kelib chiqib yangi metodikalar ishlab chiqishi va qo’llashi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. lex.uz/docs/-1485401
2. aniq.uz/uz/yangiliklar/iqtidorli-uquvchilar-urtasida-fan-olimpiadalarini-utkazish-tizimi-takomillashtiriladi?utm
3. talimxabarlari.uz/11966/?utm
4. Abduqodirov A.A. Fizika ta’limida kompetensiyaviy yondashuv va olimpiadalarga tayyorlash metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

BIOGEN ELEMENTLARNING TIBBIYOTDAGI BIOLOGIK ROLI VA KLINIK AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Sodiqova Umida Baxtiyorovna

University of Business and Science Umumkasbiy fanlar kafedrası o’qituvchisi

Email: umidasodikova1244@gmail.com

Karimjonova Gulsanam Sherali qizi

UBS Davolash ishi yo’nalishi 1 - kurs talabasi

Annotatsiya. Biogen elementlar organizmning hayotiy faoliyatini ta’minlaydigan asosiy kimyoviy elementlar bo’lib, ular oqsillar, fermentlar, gormonlar va vitaminlarning tarkibiga kiradi. Ular organizmning fiziologik holatini saqlash, modda almashinuvini boshqarish hamda immun tizimini qo’llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Kalsiy, magniy, temir, rux, yod, natriy va kaliy kabi makro va mikroelementlar qon hosil bo’lishi, nerv impulslarini o’tkazish, suyak tizimini mustahkamlash va yurak-qon tomir faoliyatini boshqarishda faol ishtirok etadi. Biogen elementlarning tanqisligi yoki ortiqcha to’planishi turli klinik holatlarning rivojlanishiga sabab bo’ladi, masalan, anemiya, osteoporoz, gipotireoz yoki yurak aritmiyalari. Shuning uchun tibbiyotda ushbu elementlarning me’yorini aniqlash diagnostika va davolashning muhim qismi hisoblanadi. Ularning biokimyoviy roli va klinik ahamiyatini chuqur o’rganish profilaktik tibbiyot va parhez terapiyasida katta imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so’zlar: biogen elementlar, mikroelementlar, makroelementlar, biologik rol, klinik ahamiyat, metabolism, homeostaz.